

Arab tili B2 daraja sertifikati uchun olingan test sinovlari natijalari tahlili

2021-yil yanvar oyida o'tkazilgan Arab tili B2 daraja sertifikati test sinovlarida jami 140 nafar talabgor ishtirok etdi. Tahlil uchun test sinovlarining tinglab tushunish, o'qish va leksik-grammatik kompetensiyalar bo'limlari natijalari olindi. Tinglab tushunish, o'qish hamda leksik-grammatik kompetensiyalar bo'limlarining har biri 30 ta test topshirig'idan iborat bo'lib, natijalar klassik test nazariyasi va Rash modeli asosida tahlil qilindi.

Statistik tadqiqotlar uchun mo'ljallangan maxsus dastur (SPSS) yordamida pedagogik testlarning asosiy statistik tavsiflari: o'rta qiymatlar, gistogrammalarni qurish, moda va mediana kabi ko'rsatkichlar hamda test ballarining umumiy dispersiyasi (standart tafovut) aniqlandi. Test ballari (yoki to'g'ri javoblar)ning **o'rta arifmetik qiymati** bo'limlar kesimida aniqlandi. Bu ko'rsatkich test ballari o'rtasidagi tafovutlarni umumlashtiradi, ularga xos bo'lgan yo'nalishni, qonuniyatni ochib beradi. Test sinovlari natijalari asosida aniqlangan **test ballari taqsimoti gistogrammasi** quriladi va uning normal taqsimotga yaqinligi baholanadi. Gistogrammaning normal taqsimotga yaqinligi test sifatining yaxshiligini, test sinovlarining obyektiv o'tkazilganligini bildiradi. Test ballarining eng ko'p takrorlanadigan qiymati statistikada **moda** deb, o'sish tartibida joylashtirilgan test ballari qatorining o'rtasida joylashgan qiymat esa **mediana** deb ataladi. O'rta arifmetik qiymat, moda va mediana qiymatlari o'zaro teng bo'lganda test ballari taqsimoti simmetrik bo'ladi. Ushbu statistik ko'rsatkichlar biri-biridan qanchalik ko'p farq qilsa, ballar taqsimoti normal taqsimotdan shunchalik farqlanadi. Shuningdek, taqsimot gistogrammasining normal taqsimot simmetriyasidan qanchalik farq qilishini ko'rsatuvchi **skewness** (asimmetriya koeffitsiyenti) hamda **kurtosis** (eksses koeffitsiyenti) ko'rsatkichlari hisoblandi.

1-jadvalda tinglab tushunish, o'qish, leksik va grammatik kompetensiyalar bo'limlari bo'yicha statistik ma'lumotlar hamda taqsimot gistogrammalari keltirilgan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tinglab tushunish va o'qish bo'limlarida taqsimot normal taqsimotga yaqin, biroq leksik va grammatik kompetensiyalar bo'limida taqsimot normal taqsimotdan farq qiladi.

Tinglab tushunish		O‘qish		Leksik va grammatik kompetensiyalar	
Test topshiruvchilar soni	140	Test topshiruvchilar soni	140	Test topshiruvchilar soni	140
Hisobdan chiqarilgan	0	Hisobdan chiqarilgan	0	Hisobdan chiqarilgan	2
O‘rtacha qiymat	18,52	O‘rtacha qiymat	15,36	O‘rtacha qiymat	8,63
Mediana	16	Mediana	15	Mediana	8
Moda	16	Moda	16	Moda	7
Skewness	-0,113	Skewness	0,139	Skewness	1,107
Kurtosis	-0,135	Kurtosis	-0,607	Kurtosis	1,904
Standart tafovut	5,14	Standart tafovut	6,00	Standart tafovut	4,14
Dispersiya	26,42	Dispersiya	36,04	Dispersiya	17,11
Diapazon	25	Diapazon	27	Diapazon	24
Minimal ball	5	Minimal ball	2	Minimal ball	1
Maksimal ball	30	Maksimal ball	29	Maksimal ball	25

1-jadval. Test natijalarining tavsif statistikasi

Standart normal taqsimotda skewness (asimmetriya koeffitsiyenti) hamda kurtosis ko‘rsatkichlari 0 (nol)ga teng bo‘ladi ya’ni taqsimot gistogrammasining o‘ng va chap taraflari mukammal simmetriya hosil qiladi. Amalda esa skewness -0,5 dan 0,5 oraliqda bo‘lishi, kurtosis qiymati 0 ga yaqin bo‘lishi talab qilinadi. 1-jadvaldan bilish mumkinki, tinglab tushunish va o‘qish bo‘limlari natijalari normal taqsimotga yaqin simmetriya hosil qiladi. Biroq leksik-grammatik kompetensiyalar bo‘limida taqsimot gistogrammasining chapga og‘ishi (left-skewed distribution) hamda kurtosis qiymatining yuqoriligi (leptokurtic distribution) kuzatildi. Bundan kelib chiqadiki, ushbu bo‘lim natijalari normal taqsimotdan katta farq qiladi.


Ishonchlilik tahlili (Kronbax alfa koeffitsiyenti) hamda **o‘lchashning standart xatoligi** validlikning eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Kronbax alfasi testning ichki barqarorligini, standart xatolik esa talabgorning natijasi uning “haqiqiy” bahosidan qanchalik farqlanishini ko‘rsatadi. Testologiya fanida qabul qilingan me’yorlarga ko‘ra alfa qiymati 0,7 dan kam bo‘lmasligi, standart xatolik esa kichik bo‘lishi talab etiladi.

Quyidagi jadvalda bo‘limlar bo‘yicha Kronbax alfa koeffitsiyenti hamda standart xatolik keltirilgan:

	Kronbax alfa	Standart xatolik
Tinglab tushunish	0,81	2,31
O‘qish	0,84	2,23
Leksik va grammatik kompetensiyalar	0,68	2,39
Umumiy	0,91	4,04

Alfa qiymati leksik va grammatik kompetensiyalar bo‘limida me’yordan past ekanligi ($\alpha < 0,70$) ushbu bo‘limda testning ichki barqarorligi biroz shubhaliligini anglatadi, biroq testning umumiy ichki barqarorligi standartlashgan testlar talabiga ($\alpha > 0,90$) muvofiq ekanligini ko‘rish mumkin. Standart xatolik qiymatining maksimal ballga nisbatan kichikligi (10 foizdan kam) qayd etilgan natijalarning haqiqiy baho (true score)ga ancha yaqinligini anglatadi.

Zamonaviy test nazariyasining Rash modeli asosida test topshiriqlarining qiyinlik darajasi tahlil qilindi. 1-rasmda test topshiriqlarining umumiy xarakteristika chiziqlari ko‘rsatilgan.




1-rasm. Test xarakteristika chiziqlari

Ushbu chiziqlar nomzodlarning haqiqiy bahosi hamda aniqlangan qobiliyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalaydi. Unga ko‘ra, qobiliyati past nomzodlarning testdan yuqori ball olish imkoniyati kam.


2-rasmda Rash modeli bo‘yicha aniqlangan qiyinlik darajalari asosida elementga javob hamda element ma’lumoti funksiyalari keltirilgan. Rasmdan ko‘rinib turibdiki, tinglab tushunish bo‘limi topshiriqlari qobiliyat darajasining kengroq diapazonini qamrab oladi, o‘qish bo‘limida qiyinlik darajalari nisbatan tekis

taqsimlangan hamda asosan o‘rtacha qobiliyat darajalari qamrab olingan, leksik va grammatik kompetensiyalar bo‘limida esa yuqori qobiliyat darajalari qamrab olingan.



2-rasm. Elementga javob funksiyalari (birinchi ustun) va element ma'lumoti funksiyalari (ikkinchi ustun)

3-rasmda yuqoridagi uchta bo‘lim bo‘yicha test ma‘lumoti chiziqlari aks etgan. Umuman olganda, rasmdan har uch kompetensiya bo‘yicha ham test ma‘lumoti chiziqlari kerakli qobiliyat oralig‘ini qamrab olishi, bu qamrov tinglab tushunish bo‘limi bo‘yicha past qobiliyatlar uchun ko‘proq, leksik va grammatik kompetensiyalar bo‘limi bo‘yicha yuqori qobiliyatlar uchun ko‘proq, o‘qish bo‘limi bo‘yicha esa past va yuqori qobiliyatlar uchun deyarli bir xil ekanligini ko‘rish mumkin.



3-rasm. Test ma‘lumoti chiziqlari